

---

## Fuqarolar uchun qulaylik va sharoitlar yaratiladi.

Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov "Mirzo Ulug'bek" mahalla fuqarolar yig'inida korxonalar va tashkilotlar rahbarlari ishtirokida o'rganish olib bordi.

O'rganish davomida fuqarolar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ichimlik suvi, elektr va tabiiy gaz ta'minoti bo'yicha fuqarolar tomonidan bildirilgan muammolarga alohida e'tibor qaratildi. Shu kunning o'zida amaliy ishlar boshlandi. Shahar obodonlashtirish boshqarmasi hamda uy-joy kommunal bo'limi xodimlari tomonidan daraxtlar butaldi, ortiqcha chiqindilar olib chiqildi. Ichimlik suvidagi muammo, shuningdek shahargaz bo'limiga tushgan murojaat ham o'z o'rnida bartaraf etildi.

Shahar hokimi mahalla hududini aylanib, obodonlashtirish ishlarini yakuniga yetkazish, markaziy ko'chalarni asfaltlashtirish, bolalar maydonchalarini ta'mirlash, uylarning fasad qismida pardoqlash ishlarini olib borish bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berdi.

2022-06-27 09:50:36